10.	<p>Б.У. Низомов, К.А. Исламова Роль активности системы комплемента в формировании системной красной волчанки B.U. Nizomov, K.A. Islamova The role of complement system activity in the development of systemic lupus erythematosus B.U. Nizomov, K.A. Islamova Komplement tizimi faolligining tizimli qizil yugurik shakllanishidagi oʻrni.....</p>	51
11.	<p>М.С. Равшанова, Х.И. Ибрагимов, Ш.Х. Зиядуллаев Клиническая эффективность комбинированной терапии биологическими и синтетическими БПВП при ревматоидном артрите M.S. Ravshanova, Kh.I. Ibragimov, Sh.X. Ziyadullayev Clinical effectiveness of biologic and synthetic DMARD combination therapy in rheumatoid arthritis M.S. Ravshanova, X.I. Ibragimov, Sh.X. Ziyadullayev Revmatik artritda biologik va sintetik DMARD'lar kombinatsiyali terapiyasining klinik samaradorligi.....</p>	56
12.	<p>М.С. Равшанова, М.А. Эшбеков, Х.И. Ибрагимов, Ш.Х. Зиядуллаев Современные иммунопатогенетические механизмы ревматоидного артрита M.S. Ravshanova, M.A. Eshbekov, Kh.I. Ibragimov, Sh.X. Ziyadullaev Modern immunopathogenetic mechanisms of rheumatoid arthritis M.S. Ravshanova, M.A. Eshbekov, X.I. Ibragimov, Sh.X. Ziyadullaev Revmatik artritning zamonaviy immunopatogenetik mexanizmlari.....</p>	60
13.	<p>Д.Р. Таиров, Д.Х. Бердиев Клинико-иммунологические и генетические особенности кардиоренальных поражений и метаболического синдрома при подагре и гиперурикемии D.R. Tairov, D.H. Berdiyev Clinical, immunological and genetic characteristics of cardiorenal lesions and metabolic syndrome in gout and hyperuricemia D.R. Tairov, D.H. Berdiyev Podagra va giperurikemiya holatida kardiorrenal zararlanishlar hamda metabolik sindromning klinik, immunologik va genetik xususiyatlari.....</p>	67
14.	<p>З.К. Таирова, Г.З. Шодиккулова Современные этиологические аспекты и стратификация факторов риска развития остеопороза Z.K. Tairova, G.Z. Shodikulova Modern etiological aspects and stratification of risk factors for osteoporosis development Z.K. Tairova, G.Z. Shodiqulova Osteoporoz rivojlanishining zamonaviy etiologik jihatlari va xavf omillarining stratifikatsiyasi.....</p>	72
15.	<p>М. М. Туркманов Современное состояние проблемы остеоартроза у пациентов с недифференцированной дисплазией соединительной ткани M. M. Turkmanov Differensiyalanmagan biriktiruvchi to'qima displaziyasi bo'lgan bemorlarda osteoartroz muammosining zamonaviy holati M. M. Turkmanov Current state of the problem of osteoarthritis in patients with undifferentiated connective tissue dysplasia.....</p>	78
16.	<p>Хасанов О.Г., Хазратов Н.М Микробиота кишечника и ревматоидный артрит: обзор литературы Khasanov O.G., Khazratov N.M. Gut microbiota and rheumatoid arthritis: a literature review Xasanov O.G., Xazratov N.M Ichak mikrobiotasi va revmatoid artrit: adabiyotlar sharhi.....</p>	82
17.	<p>Хусанов М.У., Эргашова М.М. Системная красная волчанка: эпидемиология, патогенез, диагностика и современные подходы к лечению Khusanov M.U., Ergashova M.M. Systemic lupus erythematosus: epidemiology, pathogenesis, diagnosis and modern treatment approaches Xusanov M.U., Ergashova M.M. Tizimli qizil yuguriq: epidemiologiya, patogenez, tashxis va zamonaviy davolash yondashuvlari.....</p>	88

18.	G.Z. Shodikulova, Sh.N. Sadikova	Revmatoid artritda osteoporoz rivojlanish xavfini kompleks kliniko-genetik va instrumental baholash: D vitamini metabolizmi, VDR polimorfizmlari va suyak mineral zichligi parametrlari	
	Г.З. Шодикүлова, Ш.Н. Садикова	Комплексная клинко-генетическая и инструментальная оценка риска развития остеопороза при ревматоидном артрите: метаболизм витамина Д, полиморфизмы VDR и параметры минеральной плотности костей	
	G.Z. Shodikulova, Sh.N. Sadikova	Comprehensive clinical-genetic and instrumental assessment of the risk of osteoporosis in rheumatoid arthritis: metabolism of vitamin D, VDR polymorphism and parameters of bone mineral density.....	92
19.	G.Z. Shodikulova, O.F. Shamsiev	Клинко-патогенетические аспекты развития остеопороза у женщин	
	G.Z. Shodikulova, O.F. Shamsiev	Clinical and pathogenetic aspects of osteoporosis development in women	
	G.Z. Shodikulova, O.F. Shamsiyev	Ayollarda osteoporoz rivojlanishining kliniko-patogenetik jihatlari.....	96
20.	Мирзаев О.В., Нурмаматов Ж.Х.	Распространенность и клинко-генетические особенности дисплазии соединительной ткани у узбекского населения	
	Mirzayev O.V., Nurmatov J.Kh.	Prevalence and clinical - genetic features of connective tissue dysplasia in the uzbek population	
	Mirzayev O.V., Nurmatov J.X.	O'zbek populyatsiyasida biriktiruvchi to'qima displaziyasining tarqalishi va kliniko-genetik xususiyatlari.....	102

**Таирова З.К.**


Докторант кафедры «Внутренние болезни №3», PhD
Самаркандский государственный медицинский университет,
Самарканд, Узбекистан

Шодиккулова Г.З.

Зав. кафедры «Внутренние болезни №3», д.м.н., проф.
Самаркандский государственный медицинский университет,
Самарканд, Узбекистан

СОВРЕМЕННЫЕ ЭТИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ И СТРАТИФИКАЦИЯ ФАКТОРОВ РИСКА РАЗВИТИЯ ОСТЕОПОРОЗА

For citation: Tairova Z.K., Shodikulova G.Z., OSTEOPOROZ RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY ETIOLOGIK JIHATLARI VA XAVF OMILLARINING STRATIFIKATSIYASI. Journal of cardiorespiratory research. 2026, vol 7, issue 2/3.

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0974/2026/7/2/3/15>

АННОТАЦИЯ

Остеопороз является одним из прогрессирующих заболеваний, характеризующийся высокой распространенностью. Ключевыми проявлениями остеопороза является снижение минеральной плотности костной ткани (МПКТ) и нарушение ее архитектоники. По данным ВОЗ, каждая 3 женщина и каждый 5 мужчина старше 50 лет страдает от проявлений остеопороза. В современной научной парадигме наблюдается рост научного интереса к факторам риска развития остеопороза, в котором помимо первичного остеопороза (постменопаузальный, сенильный) всё большее внимание уделяется вторичному остеопорозу, который может развиваться в любом возрасте, независимо от пола и является осложнением различных заболеваний (эндокринных, гематологических, гастроэнтерологических, ревматологических), или является результатом лекарственной терапии (ятрогенный остеопороз).

Ключевые слова: минеральная плотность костной ткани, факторы риска, перелом.

Tairova Zarangis Kamolidinovna

Doctoral student
of the Department of Internal Medicine №3, PhD
Samarkand State Medical University,
Samarkand, Uzbekistan

Shodikulova Gulandom Zikriyayevna

Head of the Department of Internal Medicine №3, DSc, professor
Samarkand State Medical University,
Samarkand, Uzbekistan

MODERN ETIOLOGICAL ASPECTS AND STRATIFICATION OF RISK FACTORS FOR OSTEOPOROSIS DEVELOPMENT

ANNOTATION

Osteoporosis is one of the progressive diseases characterized by high prevalence. The main manifestations of osteoporosis are a decrease in the mineral density of bone tissue (BTMD) and a disruption of its architectonics. According to the WHO, every 3 women and every 5 men over 50 suffer from manifestations of osteoporosis. In the modern scientific paradigm, there is a growing scientific interest in risk factors for the development of osteoporosis, in which, in addition to primary osteoporosis (postmenopausal, senile), increasing attention is paid to secondary osteoporosis, which can develop at any age, regardless of gender, and is a complication of various diseases (endocrine, hematological, gastroenterological, rheumatological), or is a result of drug therapy (iatrogenic osteoporosis).

Keywords: bone tissue mineral density, risk factors, fracture.

Tairova Zarangis Kamolidinovna

3-son ichki kasalliklar kafedrasida doktoranti, PhD
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O'zbekiston

Shodikulova Gulandom Zikriyayevna

3-son ichki kasalliklar kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O'zbekiston

OSTEOPOROZ RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY ETIOLOGIK JIHATLARI VA XAVF OMILLARINING STRATIFIKATSIYASI

ANNOTATSIYA

Osteoporoz keng tarqalganligi bilan ajralib turuvchi, avj olib boruvchi kasalliklardan biridir. Uning suyak to'qimasi mineral zichligining (STMZ) pasayishi va arxitektonikasining buzilishi bilan xarakterlanadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, 50 yoshdan oshgan har uchinchi ayol va har beshinchi erkak osteoporozdan aziyat chekadi. Zamonaviy ilmiy paradigmadagi osteoporozning rivojlanish xavfi omillariga bo'lgan ilmiy qiziqish ortib bormoqda. Bunda birlamchi osteoporozdan (postmenopauzal, senil) tashqari, jinsi va yoshidan qat'i nazar rivojlanishi mumkin bo'lgan ikkilamchi osteoporozga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Ikkilamchi osteoporoz turli kasalliklar (endokrin, gematologik, gastroenterologik, revmatologik) asorati yoki dori-darmonlar bilan davolash (yatrogen osteoporoz) natijasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: suyak to'qimasi mineral zichligi, xavf omillari, sinish.

Osteoporoz (OP) - metabolik osteopatiyalar guruhidan bo'lgan skeletning tizimli kasalligi bo'lib, suyak to'qimasi zichligining kamayishi va uning arxitektonikasining buzilishi bilan tavsiflanadi, bu suyak mustahkamligining pasayishi va sinish xavfining oshishi bilan namoyon bo'ladi [1].

Osteoporoz polietiologik kasallik bo'lib, uning rivojlanishi irsiy moyillik, turmush tarzi, jismoniy faollik, endokrin tizimi holati, hamroh kasalliklar mavjudligi, dori-darmonlarni qabul qilish, insonning qarishi va individual umr ko'rish davomiyligi bilan bog'liq [3, 8]. Suyak to'qimasi massasining to'planishi bolalik va o'smirlik davrida boshlanib, 20-30 yoshlarda maksimal darajaga yetadi. 35-40 yoshgacha cho'qqiga chiqqandan so'ng suyak massasi deyarli o'zgarmaydi, keyin asta-sekin kamaya boshlaydi.

Kasallik asosida suyak to'qimasi rezorbsiyasining kuchayishi (osteoklastlar) va suyak hosil bo'lishining pasayishi (osteoblastlar) bilan suyak remodellanishi jarayonlarining buzilishi yotadi [1]. Ko'rsatilgan jarayonlar osteotrop gormonlar tomonidan boshqariladi, ular orasida kalsiy gomeostaziga ta'sir qiluvchi ikkita gormon - paratgormon (PTG) va 1,25-digidroksivitamin D3 (D vitamini) va boshqalar - kalsitonin, jinsiy gormonlar (estrogenlar va androgenlar), o'sish gormoni, tireoid gormonlar va glyukokortikoidlar (GK). Osteoklastlar (OK) kalsitonin, estrogenlar va GK uchun retseptorlarni, osteoblastlar (OB) esa tireoid gormonlar, D vitamini, PTG, estrogenlar va GK uchun retseptorlarni ifodalaydi. Markaziy regulatsiya bilan bir qatorda OB va OK rivojlanishi va differentsiatsiyasi suyak ko'migida sintezlanadigan o'sish omillari, sitokinlar va adgeziya molekullari tomonidan nazorat qilinadi, ular suyak hujayralari va matrisning o'zaro ta'sirini, tizimli gormonlar va mexanik signallar ta'sirini birlashtiradi. OK rezorbtiv faolligini boshqarishda markaziy o'rinni RANKL/RANK/OPG (Receptor activator of NF-kB/receptor activator of NF-kB ligand/osteoprotegerin) tizimi egallaydi. Biroq, ba'zi "yallig'lanish oldi" sitokinlar RANKL va OPG ishtirokisiz O'K hosil bo'lishi va stimulyatsiyasini rag'batlantirishi mumkin. Bularga interleukin (IL) 1, IL-3, IL-6, IL-11, o'sma nekrozi omili α ($O'NO-\alpha$), granulotsitar-makrofagal koloniya stimullovchi omil (GM-KSF) kiradi. Shu bilan birga, IL-4, IL-10, IL-33, IL-18 va interferon g (IFN-g) OK rivojlanishini ingibirlaydi. OBni rag'batlantiruvchi yagona mediatorlar

transformatsiyalovchi o'sish omili β (TFR- β) oilasiga mansub suyak morfogen oqsillari 2 va 4 hisoblanadi. Osteoporozning rivojlanishi irsiy moyillik, turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlari, kam jismoniy faollik, yallig'lanish, shuningdek, yondosh kasalliklar va ba'zi dori-darmonlarni qabul qilish bilan bog'liqligi isbotlangan [1, 5].

Masalan, osteoporoz fonidagi patologik sinishlar o'z bo'yi balandligidan yiqilish, noqulay harakat, yo'tal, aksirish va umuman ko'rinadigan travmatik aralashuvsiz yuzaga kelishi mumkin. [4].

Osteoporozning ijtimoiy ahamiyati uning oqibatlarini - umurtqa tanalari va periferik skelet suyaklarining sinishi bilan belgilanadi, bu sog'liqni saqlash sohasida katta moddiy xarajatlarga olib keladi va mehnatga layoqatsizlikning yuqori darajasini, shu jumladan nogironlik va o'limni keltirib chiqaradi. Osteoporoz tufayli eng tipik sinishlar son suyagi proksimal qismining sinishi, bilak suyagi va umurtqalar tanasining sinishi hisoblanadi, ammo boshqa yirik skelet suyaklarining (tos, qovurg'alar, to'sh, boldir, yelka suyagi va h.k.) sinishini ham kuzatish mumkin [2, 3, 9].

Birlamchi osteoporoz skelet mustahkamligi pasayishining aniqlanmagan boshqa sababisiz mustaqil kasallik sifatida rivojlanadi, postmenopauza davridagi ayollarda osteoporoz tarkibida 95% ni (postmenopauzal osteoporoz) va 50 yoshdan oshgan erkaklarda osteoporoz tarkibida 80% ni egallaydi [2, 4]. Birlamchi osteoporozga ayollarda menopauzadan oldin va erkaklarda 50 yoshgacha rivojlanadigan idiopatik osteoporoz va bolalarda (18 yoshgacha) tashxis qo'yiladigan yuvenil osteoporoz ham kiradi. Birlamchi osteoporozning idiopatik va yuvenil shakllari kam uchraydi. Ikkilamchi osteoporoz turli kasalliklar yoki holatlar, shuningdek, dori vositalarini qabul qilish natijasida rivojlanadi, ya'ni osteoporozga olib keladigan aniq sabab mavjud (1-jadval). Osteoporoz tuzilmasida ikkilamchi osteoporoz ayollarda 5% va erkaklarda 20% ni tashkil qiladi [4, 10]. Aralash xarakterdagi osteoporoz ham boshlanishi mumkin. Masalan, menopauzadan keyingi davrda ayollarda og'ir somatik kasallik tufayli glyukokortikoidlarni qabul qilish o'z-o'zidan ikkilamchi osteoporoz rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatda skelet suyaklari mustahkamligining pasayishining asosiy sababini aniqlash juda qiyin. [3, 4].

1-jadval. Ikkilamchi osteoporoz rivojlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar, kasalliklar va dorilar [2, 3, 4, 8].

Turmush tarzi omillari	A gipervitaminozi, tana vaznining yaqqol yetishmovchiligi, tana vaznining keskin kamayishi, ovqatlanishning buzilishi: kalsiyning kam iste'mol qilinishi, D vitamini tanqisligi, ratsionda tuzning ortiqchalligi
Genetik kasalliklar	mukovissidoz, Elers-Danlo sindromi, Goshe kasalligi, glikogen to'planishi kasalliklari, gemoxromatoz, gomotsistinuriya, gipofosfataziya, Marfan sindromi, "po'lat sochlar" kasalligi (Menkes kasalligi) - mis transportining buzilishi, nomukammal osteogenez, oilaviy dizovtonomiya (Reyli-Deya sindromi), porfiriya
Gipogonad holatlar	androgenlarga sezuvchanlikning yo'qolishi, asab anoreksiyasi, atlet amenoreyasi, giperprolaktinemiya, pangipopituitarizm, erta menopauza (40 yoshgacha), Turner va Klaynfelter sindromlari
Endokrin buzilishlar	akromegaliya, androgen giperkortitsizm, 1 va 2-toifa qandli diabet, giperparatireoz, tireotoksikoz
Oshqozon-ichak buzilishlari	seliakiya, oshqozon shunti, oshqozon-ichak traktining jarrohlik aralashuvlari, ichakning yallig'lanish kasalliklari (Kron kasalligi va nospetsifik yarali kolit), malabsorbsiya, pankreatit, birlamchi billar sirroz
Gematologik buzilishlar	gemofiliya, leykemiya va limfomalar, monoklonal gammopatiyalar, tarqoq miyeloma, o'roqsimon hujayrali anemiya, tizimli mastositoz, talassemiya
Revmatologik va autoimmun kasalliklar	ankilozlovchi spondilit, boshqa revmatik va autoimmun kasalliklar, revmatoid artrit, tizimli qizil yugurik

Nevrologik va suyak-mushak xavf omillari	epilepsiya, tarqoq skleroz, mushak distrofiyasi, Parkinson kasalligi, orqa miya shikastlanishi, insult
Boshqa holatlar va kasalliklar	OITS/OIV infeksiyasi, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi, amiloidoz, surunkali metabolik asidoz, dimlanishli yurak yetishmovchiligi, immobilizatsiya, alkogolizm, terminal bosqichdagi buyrak yetishmovchiligi, giperkalsiyuriya, idiopatik skolioz, transplantatsiyadan keyingi suyak kasalligi, sarkoidoz
Dori vositalari	alyuminiy (antatsidlar tarkibida), antikoagulyantlar (geparin natriy), tutqanoqqa qarshi dorilar, o'smaga qarshi vosita - gonadotropin-rilizing gormon analogi, barbituratlar, o'smaga qarshi gormonal dorilar - aromataza ingibitorlari Medroksiprogesteron (menopauzadan oldingi kontratsepsiya), glyukokortikosteroidlar (≥ 5 mg/sut prednizolon yoki unga tenglashtirilgan doza ≥ 3 oy davomida), lity karbonat, siklosporin va takrolimus, metotreksat, parenteral oziqlantirish, proton nasosi ingibitorlari, antidepressantlar, pioglitazon va rosiglitazon, qalqonsimon bez gormonlari (supressiv dozalar, uzoq vaqt davomida)

Revmatik kasalliklar odamning surunkali yallig'lanish patologiyasining eng og'ir shakllari qatoriga kiradi. Hozirgi vaqtda shu narsa ma'lumki, OP nafaqat birlamchi kasallik sifatida keksalarning kasallanishi va o'limi tarkibida muhim o'rin tutadi, balki ham komorbid holat, ham ularning asorati sifatida immun yallig'lanish revmatik kasalliklari (IYaRK) kechishida katta rol o'ynaydi. OP patogenezida turli immun mexanizmlar ishtirok etib, ular IYaRK immunopatogenezining asosini tashkil etadi. Shunday qilib, suyak massasining yetishmovchiligi va mikroarxitektonikaning buzilishiga olib keladigan suyak to'qimalarining ortiqcha yo'qolishi, kuchaygan suyak yemirilishiga javoban suyak hosil bo'lishining yetarli darajada oshmasligi birinchi navbatda T-limfotsitlarning faollashishi va yallig'lanish oldi va yallig'lanishga qarshi sitokinlar ishlab chiqarish o'rtasidagi muvozanatning buzilishi bilan bog'liq [1, 11].

Revmatik kasalliklarda OP patogenezida birlamchi OP rivojlanishidagi mexanizmlar yotadi, ammo yallig'lanish, immobilizatsiya va revmatik kasalliklarni davolash uchun qo'llaniladigan preparatlar suyak to'qimasining yo'qolishiga va uning sifatining yomonlashishiga qo'shimcha ta'sir ko'rsatadi [5, 6]. RANKL/RANK/OPG tizimi (RANKL - kB yadro omili retseptor-faollashtiruvchi ligand, RANK - kB yadro omili retseptor-faollashtiruvchi, OPG - osteoprotegerin) va kanonik Wnt - signal yo'li (kWnt-SP) nafaqat birlamchi OP patogenezida, balki revmatik kasalliklarda suyak to'qimasining sitokinlarga bog'liq rezorbsiyasini boshqarishda ham muhim bo'g'in hisoblanadi. RANKL o'sma nekrozi omillari oilasiga mansub sitokin bo'lib, osteoklastlarning o'tmishdosh hujayralarida RANK bilan bog'lanadi, osteoklastlarning differentsiatsiyasini rag'batlantiradi va suyak rezorbsiyasini faollashtiradi. OPG eruvchan retseptor-tuzoq bo'lib, u osteoblastlar tomonidan ekspressiyalanadi va RANKLni neytrallaydi, natijada

osteoklastlarning differentsiatsiyasi va faollashuvi jarayoni susayadi. Kanonik Wnt - signal yo'li (kWnt-SP) osteoblastlarga xos genlar transkripsiyasini faollashtirib, osteogenezning asosiy boshqaruvchisi sifatida osteoblastlar differentsiatsiyasini boshqaradi. Osteoblastlarda kWnt-SP faollashuvi OPG ishlab chiqarilishining ko'payishiga olib keladi, natijada osteoklastlar faolligi pasayadi va suyak to'qimasi rezorbsiyasi kamayadi. kWnt-SP ingibitorlari - Dkkopf-1 (Dkk-1) oqsillari va sklerostin kWnt-signal faolligini pasaytiradi va osteoblastlar yetilishining buzilishiga olib keladi. RANKL revmatik kasalliklar patogenezida muhim rol o'ynaydigan faollashgan T-limfotsitlar, sinovial fibroblastlar va dendritik hujayralar membranasida ekspressiyalanishi aniqlangan. Ko'pgina revmatik kasalliklar patogenezida asosida yotuvchi T-limfotsitlarning tizimli faollashuvi RANKL/RANK/OPG tizimida RANKL sekretsiasining oshishi bilan nomutanosiblikni keltirib chiqaradi, bu esa kWnt-SP ingibitorlari sekretsiasining kuchayishi bilan bir qatorda og'ir OPga olib keladi [5]. OP rivojlanishida RANKL/RANK/OPG tizimi, shuningdek boshqa mexanizmlar orqali OP rivojlanishiga, suyak to'qimasi sifatining yomonlashishiga va yiqilish xavfining oshishiga olib keladigan glyukokortikoidlarning (GK) ahamiyati shubhasiz [6, 7].

Shunday qilib, OP muammosi ko'p sonli xavf omillari tufayli dolzarbligicha qolmoqda. Suyak to'qimasi mahalliy va tizimli yallig'lanish jarayoni, glyukokortikoidlar bilan davolash va boshqa xavf omillari mavjudligi sababli ko'plab revmatik kasalliklarda jarayonga jalb qilinadi, natijada ikkilamchi osteoporoz turli kasalliklarda tez-tez uchraydigan komorbid holat hisoblanadi. Revmatologlar, terapevtlar va umumiy amaliyot shifokorlari bemorlarda OP va sinishlarning o'z vaqtida oldini olish, shuningdek, antiosteoporotik dori-darmonlar bilan yetarli darajada davolash uchun bemorlarda OP xavfi yuqori ekanligini bilishlari kerak.

References / Список литературы / Iqtiboslar

1. Торопцова НВ, Никитинская ОА, Насонов ЕЛ. Остеопороз: вчера, сегодня, завтра. Научно-практическая ревматология. 2023;61(3):249–259.
2. Галушко Е. А., Насонов Е. Л. Распространенность ревматических заболеваний в России. Альманах клинической медицины. 2018; 46 (1): 32–9. Galushko E. A., Nasonov E. L. The prevalence of rheumatic diseases in Russia. Almanac of Clinical Medicine. 2018; 46 (1): 32–9.
3. Беляя Ж.Е., Белова К.Ю., Бирюкова Е.В., Дедов И.И., и др. Федеральные клинические рекомендации по диагностике, лечению и профилактике остеопороза // Остеопороз и остеопатии. — 2021. — Т. 24. — №2. — С. 4-47. doi: <https://doi.org/10.14341/osteol2930>
4. Мельниченко Г.А., Беляя Ж.Е., Рожинская Л.Я., Торопцова Н.В., Алексеева Л.И., Бирюкова Е.В., Гребенникова Т.А., Дзеранова Л.К., Древалев А.В., Загородний Н.В., Ильин А.В., Крюкова И.В., Лесняк О.М., Мамедова Е.О., Никитинская О.А., Пигарова Е.А., Родионова С.С., Скрипникова И.А., Тарбаева Н.В., и др. Федеральные клинические рекомендации по диагностике, лечению и профилактике остеопороза. Проблемы эндокринологии. 2017;63(6):392-426. doi: [10.14341/probl2017636392-426](https://doi.org/10.14341/probl2017636392-426).
5. AAOS.org [Internet]. Rosemont (IL): American Association of Orthopaedic Surgeons; Orthopaedic Care of Patients with Fragility Fractures. American Association of Orthopaedic Surgeon Position Statement, Doc. No. 1159, December 2009 [updated 2016 Sep; cited 2021 Jul 26]. Available from: <https://www.aaos.org/uploadedFiles/1159%20Orthopaedic%20Care%20of%20Patients%20with%20Fragility%20Fractures.pdf>.
6. Shodikulova G.Z., Khasanov O.G., & Tairova Z.K. (2025). Prediction of the Development of Osteoarthritis of the Hip Joint Based on Distribution of the Gene Encoding 5-Factor Gdf5 Growth Differentiations. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 6(2), 812–818. <https://doi.org/10.51699/cajms.v6i2.2770>
7. Ziade N., El Khoury B., Zoghbi M. et. al. Prevalence and pattern of comorbidities in chronic rheumatic and musculoskeletal diseases: the COMORD study. Sci Rep. 2020 May 6;10 (1): 7683.
8. Kanis JA, Cooper C, Rizzoli R, Reginster J-Y; Scientific Advisory Board of the European Society for Clinical and Economic Aspects of Osteoporosis (ESCEO) and the Committees of Scientific Advisors and National Societies of the International Osteoporosis Foundation (IOF). European guidance for the diagnosis and management of osteoporosis in postmenopausal women. Osteoporos Int. 2019;30(1):3-44. doi: [10.1007/s00198-018-4704-5](https://doi.org/10.1007/s00198-018-4704-5).

9. Adami G, Fassio A, Rossini M. et. al. Osteoporosis in Rheumatic Diseases. *Int J Mol Sci.* 2019 Nov 22; 20 (23): 5867.
10. Kamolidinova T. Z., Zikriyeva S. G. Risk factors and features of coronary heart disease in patients with rheumatoid arthritis // *journal of biomedicine and practice.* – 2022. – Т. 7. – №. 6.
11. Axadova M.Z., Tairova Z.K., Axadov A.A. REVMATOID ARTRIT KASALLIGINING ETIOPATOGENEZI VA TASHXISLASH MEZONLARI // *Zamonaviy tibbiyot jurnali (Журнал современной медицины).* 2025. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/revmatoid-artrit-kasalligining-etiotopogenezi-va-tashxislash-mezonlari>.